



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr

VI-56-217-4-0-K/22

Qashqadaryo viloyati hokimligi

Qashqadaryo viloyatining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

Budjet kodeksining 99-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-dekabr va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan 2022-yil 27-dekabr kuni qabul qilingan "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 01/20-32/1021-sonli xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" Qonuniga muvofiq, Qashqadaryo viloyati mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 4561,2 mlrd.so'm, xarajatlari 8380,2 mlrd.so'm prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 3819,0 mlrd.so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Qashqadaryo viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2024-2025-yillarga maqsadli

mo'ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2023-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Qashqadaryo viloyati bo'yicha g'aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

6. 2023-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun viloyat budjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun viloyat mahalliy budjetining viloyat budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 40,3 mlrd. so'm miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2023-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Qashqadaryo viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2023-yil uchun viloyatning viloyat, shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy

budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar va shaharlar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

b) Qashqadaryo viloyatining viloyat budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromat turlari:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdordagi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdordagi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat daromadiga o'tkazilgan mol-

mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar;

xususiylashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar.

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portali orqali ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo'yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo'yilishi;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo'shimcha mablag'larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg'armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo'naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so'm mablag' rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

12. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (A.Qodirov) viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasi (F.Yusupov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Nisbatxonov) tumanlar va shaharlar hokimliklari va mas'ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

13. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (Sh.Nisbatxonov) tumanlar va shaharlar Davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (J.Usmonov) bilan birgalikda viloyatda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

14. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (Sh.Nisbatxonov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish topshirilsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan "marksheydrlik" xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo'yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi viloyat hududiy boshqarmasi (O.Poyonov) viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Nisbatxonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rib borishni ta'minlasin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Bo'riev) bo'sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro'yxatga asosan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo'ljallangan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini «ye-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Bo'riev), viloyat davlat soliq boshqarmasi (Sh.Nisbatxonov), viloyat moliya bosh boshqarmasi (F.Yusupov) davlat korxonalarini hamda ustav kapitalida 50 foiz va

undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023-yilning 1-iyuliga qadar 2022-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlarni 2023-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o'tkazilishini ta'minlasin.

18. Monopoliyaga qarshi ko'rashish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Sodiqov) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha shartnomalar tuzish choralarini ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'implarni budjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

19. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (A.Tursunov) va viloyat davlat soliq boshqarmasi (Sh.Nisbatxonov) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish choralarini ko'rsin.

Bunda, qishoq xo'jaligi korxonalarini tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

20. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Satvoldiev), viloyat yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Sadirov), majburiy ijro byurosi viloyat hududiy boshqarmasi (O.Poyonov), Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Eshnazarov) hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko'rib borsin.

21. Viloyat davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (F.Turumov) xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim va sog'liqni saqlash bosh boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat'iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirish;

o'tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo'yicha kamomad va noqonuniy o'zlashtirishga yo'l qo'ygan soha rahbarlarining hisobotini har chorakda eshitib borilishini ta'minlasin.

22. Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi Kengash qarori loyahasini budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etgan holda ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

23. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklariga:

tumanlar va shaharlar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari viloyat, tumanlar va shaharlar Kengashlari, yoshlar ishlar agentligi, tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etiladigan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

24. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Qodirov) tumanlar va shaharlar hokimliklari va tegishli boshqarmalar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari viloyat Kengashiga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Mazkur qaror rasmiy gazetalar hamda veb-saytlarga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Azimov

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-56-217-4-0-K/22-son
qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyatining 2023-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari
prognoz ko'rsatkichlari hamda 2024-2025-yilga mo'ljallari**

№	Ko'rsatkichlar	2023-yil uchun prognoz	Mo'ljal	
			2024-yil	2025-yil
1	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so'm	60 439,1	62 832,0	71 915,4
2	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	105,4	107,4	107,8
3	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	107,4	107,5	108,2
4	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	103,6	104,4	104,9
5	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	113,2	113,5	113,6

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-56-217-4-0-K/22-son
qaroriga
2-ilova

**Qashqadaryo viloyati mahalliy budjeti daromadlarining
2023-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari**

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	570 948 000
2	Aylanmadan olinadigan soliq	0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	668 368 200
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	0
5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	0
6	Aksiz solig'i, jami	49 350 000
	- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	49 350 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	125 510 200
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0
9	Yuridik shaxslar yer solig'i	0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	0
11	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0
13	Davlat boji	154 627 000
14	Jarimalar	112 063 000
15	Ijara to'lovi	0
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0
17	Yig'imlar	22 042 000
18	Xususiylashtirish	25 000 000
19	Boshqalar	0
JAMI		1 727 908 400
20	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i tushumlaridan tegishli ravishda o'tkazib beriladigan daromad	558 415 777
-	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	225 907 798
-	Mobil aloqa xizmati	96 901 310
-	Tamaki mahsulotlari	235 606 669
21	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	1 667 443 466
HAMMASI		3 395 351 866

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-56-217-4-0-K/22-son
qaroriga
3-ilova

**2023-yil uchun Qashqadaryo viloyati budjetidan hududiy budjet mablag'larini
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari**

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	6 105 314 817
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 007 270 514
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	428 750 837
	Advokatlik xizmatiga haq to'lash uchun ajratilgan mablag'lar	1 850 000
	Tuman va Shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	1 667 443 466
1.	Maktabgacha ta'lim boshqarmasi	159 224 507
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	10 800 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	148 424 507
2.	Xalq ta'limi boshqarmasi	450 254 436
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	300 847 306
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	149 407 130
3.	Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi	24 803 798
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	24 803 798
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
4.	Sog'liqni saqlash boshqarmasi	686 967 779
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	638 563 179
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	48 404 600
5.	Madaniyat boshqarmasi	24 602 883
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	24 602 883
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6.	Sportni rivojlantirish boshqarmasi	26 505 854

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	26 505 854
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
7.	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar boshqarmasi	80 881 207
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	80 881 207
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8.	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi	31 058 733
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	26 018 733
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	5 040 000
9.	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi	2 026 865
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 026 865
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10.	O'simliklar karantini hududiy inspeksiyasi	20 452 397
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	20 452 397
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
11.	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi	1 408 271
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 408 271
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
12.	Suv xo'jaligi vazirligi Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	2 020 732 737
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 013 672 737
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	7 060 000
13.	Transport boshqarmasi	2 743 828
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 743 828
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
14.	Xalq Deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashi kotibiyati	433 006
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	433 006
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15.	Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasi	9 890 890
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	9 890 890
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16.	Moliya bosh boshqarmasi	2 180 769 011
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 565 400
	Chet el kreditlarini qaytarish xarajatlari	40 396 313
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	3 500 000
	Advokatlik xizmatiga haq to'lash uchun ajratilgan mablag'lar	1 850 000
	Prezident maktablarini qurish uchun jalb etilgan qarz mablag'larini qaytarish xarajatlari	43 000 000
	Tuman va Shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	1 667 443 466
17.	G'aznachilik boshqarmasi	11 863 100
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 863 100
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18.	Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmasi	23 834 756
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	23 834 756
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
19.	Pillachilik va qorako'chilikni rivojlantirish boshqarmasi	250 744
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	250 744
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
20.	Turizmni rivojlantirish departamenti	2 721 933
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 721 933
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
21.	O'rmon xo'jalik boshqarmasi	26 387 729
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	26 387 729
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
22.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	7 830 485
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 830 485
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
23.	Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi	1 589 512
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	1 589 512
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
24.	Davlat xizmatlari agentligi FXDYo bo'limlari	2 767 101
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 767 101
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
25.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi	2 154 481
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 154 481
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
26.	Bandlik va mehnat munosabatlari bosh boshqarmasi	1 399 070
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 399 070
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
27.	Qurilish boshqarmasi	2 522 912
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 522 912
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
28.	Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	11 288 864
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 288 864
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
29.	Adliya boshqarmasi	7 143 813
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 143 813
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
30.	Viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag'alikni qisqartirish boshqarmasi	17 659 925
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	17 659 925
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
31.	Viloyat hokimligi	128 978 407
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	128 978 407
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
32.	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining hududiy boshqarmasi	7 200 998

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 200 998
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
33.	Saylov komissiyalari	69 557
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	69 557
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
34.	Arxiv ishi boshqarmasi	3 385 718
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 385 718
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
35.	Mahalla va oilalarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi	1 313 028
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 313 028
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
36.	Viloyat Hokimligining zaxira jamg'armasi	40 214 808
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	40 214 808
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
37.	Yoshlar ishlari agentligi Qashqadaryo viloyat boshkarmasi	1 413 337
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 413 337
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
38.	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	126 330
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	126 330
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
39.	Issiqlik ta'minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari(subsidiyalar)	2 209 000
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 209 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
40.	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	45 942 380
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	45 942 380
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

41.	Markazlashtirilgan investitsiyalarini moliyalashtirish xarajatlari	61 338 138
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	61 338 138
42.	Boshqa xarajatlar	11 790 560
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 790 560
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-56-217-4-0-K/22-son
qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2023-yildagi ajratmalari me'yorlari

foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i
1	Qarshi shahar	0	100	10	100	30	100	100	100	100
2	Shahrisabz shahri	0	100	100	100	100	100	100	100	100
3	G'uzor tumani	0	100	50	100	100	10	100	100	100
4	Dehqonobod tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100
5	Qamashi tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100
6	Qarshi tumani	0	100	100	100	50	100	100	100	100
7	Koson tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100
8	Kitob tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100
9	Muborak tumani	0	100	30	100	100	0	100	100	100
10	Nishon tumani	0	100	40	100	100	0	100	100	100
11	Kasbi tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100
12	Chiroqchi tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100
13	Shahrisabz tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100
14	Yakkabog' tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100
15	Mirishkor tumani	0	100	100	100	100	50	100	100	100
16	Ko'kdala tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig'imlar	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan ajratma	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	Xususiy tashkilotlar	Boshqalar
1	Qarshi shahar	100	100	0	0	0	100	100	0	0
2	Shahrisabz shahri	100	100	0	0	100	100	100	0	0
3	G'uzor tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
4	Dehqonobod tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0

5	Qamashi tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
6	Qarshi tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
7	Koson tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
8	Kitob tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
9	Muborak tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
10	Nishon tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
11	Kasbi tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
12	Chiroqchi tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
13	Shahrisabz tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
14	Yakkabog' tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
15	Mirishkor tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0
16	Ko'kdala tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-56-217-4-0-K/22-son
qaroriga
5-ilova

**Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining
2023-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi**

ming so'mda

Budjetlar nomi	Daromad *	Xarajat
JAMI	4 561 216 977	8 380 207 617
Viloyat budjeti	2 286 324 177	4 437 871 351
Qarshi shahri	228 138 000	283 829 153
Qarshi tumani	176 800 000	268 673 679
Mirishkor tumani	142 904 000	169 206 324
G'uzor tumani	195 950 000	259 343 916
Dehqonobod tumani	143 650 000	196 739 530
Qamashi tumani	122 150 000	324 906 789
Koson tumani	157 900 000	295 551 841
Kitob tumani	148 400 000	306 269 281
Muborak tumani	87 722 000	115 447 674
Nishon tumani	124 965 800	199 805 276
Kasbi tumani	119 300 000	237 968 172
Chiroqchi tumani	151 860 000	308 872 191
Shahrisabz tumani	130 000 000	286 760 263
Yakkabog' tumani	146 000 000	306 310 345
Shahrisabz shahri	129 200 000	192 399 603
Ko'kdala tumani	69 953 000	190 252 229

* mobil aloqa xizmatlari uchun, alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo va tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig'idan tushumlar bo'yicha o'tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-56-217-4-0-K/22-son
qaroriga
6-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2023-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so'mda

Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
JAMI	3 818 990 640
<i>shundan</i>	
Viloyat budjeti	2 151 547 174
Qarshi shahri	55 691 153
Qarshi tumani	91 873 679
Mirishkor tumani	26 302 324
G'uzor tumani	63 393 916
Dehqonobod tumani	53 089 530
Qamashi tumani	202 756 789
Koson tumani	137 651 841
Kitob tumani	157 869 281
Muborak tumani	27 725 674
Nishon tumani	74 839 476
Kasbi tumani	118 668 172
Chiroqchi tumani	157 012 191
Shahrisabz tumani	156 760 263
Yakkabog' tumani	160 310 345
Shahrisabz shahri	63 199 603
Ko'kdala tumani	120 299 229

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 30 dekabrda
VI-56-217-4-0-K/22-son
qaroriga
7-ilova

**Viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida
2023-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori**

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	22 709 000
	<i>shundan</i>	
1	Viloyat budjeti	6 628 944
2	Qarshi shahri	1 562 051
3	Qarshi tumani	1 216 266
4	Mirishkor tumani	709 789
5	G‘uzor tumani	1 171 369
6	Dehqonobod tumani	904 116
7	Qamashi tumani	957 976
8	Koson tumani	1 367 493
9	Kitob tumani	1 369 974
10	Muborak tumani	589 585
11	Nishon tumani	843 871
12	Kasbi tumani	847 034
13	Chiroqchi tumani	821 497
14	Shahrisabz tumani	1 174 621
15	Yakkabog‘ tumani	1 101 394
16	Shahrisabz shahri	962 244
17	Ko‘kdala tumani	480 776